



TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

IBROYIM  
YUSUPOV




0X0000048125

35

827.512.133  
10-91



# IBROYIM YUSUPOV



“O‘ZBEKISTON”  
TOSHKENT – 2022

UO'K 821.512.121-3  
KBK 84(5O'zb-6Qor)  
Yu 91

### **Tahrir hay'ati:**

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,  
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,  
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,  
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

### **Ishchi guruh:**

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,  
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

### **To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:**

**Rustam Musurmon**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamlı, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.



## SHE'RIYATNING KATTA KARVONI

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov tavalludining 90 yilligi mamlakatimiz miqyosida keng nishonlandi. Nukus va Toshkent shaharlarida bo'lib o'tgan adabiyot anjumanlarida shoirlar, adabiyotshunos olimlar, davlat va jamoat arboblari, keng kitobxonlar ommasining ulug' shoirning ibratli hayoti va ijodi haqidagi fikrlari, xotiralari, dil so'zlari izhor etildi.

Xalq nima uchun Ibroyim Yusupovni bunchalik yaxshi ko'radi?

Bu savolga shoirning tanlangan asarlar to'plamini o'zbek tilida nashrga tayyorlash jarayonida javob topdik.

*Yerga xizmat qilmay po'lat paznalar<sup>1</sup>,  
Yuzlari yaltirab ochilmas zinhor.  
Elga xizmat qilmay kuchli yigitlar,  
O'zni erkak sanab kerilsa, bekor.*

Hikmatli so'zga aylanib ketgan ushbu misralarida inson hayotining mohiyati nimadan iborat ekani yorqin ifodalangan. Omochning yerni shudgor qiladigan temir tishi qoraqalpoqchada "pazna" deyiladi. Ekin ekib, dehqonchilik qilgan kishi yaxshi biladi: ketmon yerni qanchalik ko'p chopsa, uning temir yuzi shunchalik yaltirab ochiladi. Pazna ham yerni qanchalik ko'p shudgor qilsa, uning temirini tuproq yarqiratib yuboradi. O'z navbatida yer mehnat qilgan kishidan saxovatini ayamaydi. Hosil mo'l bo'lsa, xalq to'q bo'ladi. Ishlatilmay, bekor yotgan mehnat quroli esa zanglab qoladi. Pazna-omochlar, ketmon-u belkuraklarni doimo ishlatib turadigan zahmatkash insonlar kerak el-yurtga. Shoir hayotdagi ana shu misoldan kelib chiqib, yigitlar qanchalik zo'r

<sup>1</sup> Pazna — omoch.

va barvasta bo‘lmasin agar o‘z el-yurtiga, xalqiga xizmat qilmasa, ular erkak sanalmaydi, degan teran mazmunli fikrni ifodalaydi. Tashxis, parallelizm, istiora san’atining yorqin namunasi Ibroyim Yusupovning she’rida olmosday yaltirab jilolanadi. Bu gapni eshitgan har qanday yigitning ori kelib, o‘zini va hamrohlarini xalq xizmatiga safarbar etishi tayin.

Ana shu qanotli so‘zlardan kelib chiqib fikrlasak, shoirning po‘lat paznasi — qalam, ekinzor yeri — qog‘oz, mehnatining mevasi — she’r. Yer timsolida, ona zamin, Vatan degan muqaddas tushunchalar ham mujassam.

Shoir o‘z kuch-quvvati, iste’dodi, butun hayoti va ijodini el-yurt xizmatiga bag‘ishlagan. Shuning uchun nafaqat qoraqalpoq xalqi, balki o‘zbek xalqi ham Ibroyim Yusupov asarlarini jon-u dili bilan sevib o‘qiydi.

Shoir “Hayot, senga oshiqman” kitobidagi so‘zboshida o‘z ijodiy dasturi haqida shunday yozgan edi: “Gapning lo‘nda-sini aytsam, shoirlkda uch narsaga sodiq bo‘ldim: she’r orqali xalqning yuragiga yo‘l izladim, zamondoshlarimning yurak sadosin, qayg‘u-quvonchin, orzu-armonlarin, tilak-istaklarin, buyuk insonparvarlik fazilatlarin kuylashga intildim...”

Ibroyim Yusupovning Vatan, el-yurtga cheksiz muhabbat, xalq ishiga kamarbastalik ruhidagi she’rlari mazmunan Prezidentimiz: **“Biz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albat-ta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani — xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir”** deb aytgan so‘zlarga naqadar hamohang ekanini anglaymiz.

Shu o‘rinda she’r va shoirlik qismati haqidagi “O‘q va qo‘shiq”<sup>1</sup> nomli yana bir she’r yodga tushadi.

*Shamolda osmonga qarab otdim o‘q —  
Tez uchdi, izin ham ko‘rmay qoldim, yo‘q.  
Ko‘z ilg‘ay olurmi izidan borib,  
O‘q o‘zib uchganda bulutni yorib?*

<sup>1</sup> She’r tarjiması bizniki — R. M.

*Shamolda g'am bilan kuyladim qo'shiq, —  
Tez uchdi, izin ham ko'rmay qoldim, yo'q.  
Ko'z ilg'ay olurmi izidan quvib,  
Qo'shiq qanot qoqsa, dardingni yuvib?*

*O'qni topdim bir yil o'tgach shu ondan —  
Daraxtga sanchilgan olis o'rmondan.  
Qo'shig'imni hijron bitgach quvnab ko'z,  
Yorning yuragidan topdim so'zma-so'z.*

Jahon adabiyotining mumtoz namoyandalaridan biri, hindular hayotiga bag'ishlangan “Gayavata haqida qo'shiq” dostoni muallifi Genri Longfelloning ushbu she'ri Ibroyim og'aning hayoti va ijodiga ham bevosita daxldor. Ibroyim Yusupov ham insonni, uning g'am-u shodligini, qayg'u-yu quvonchini kuylagani uchun odamlarning yuragidan joy olgan. Uning yuragidan chiqqan qo'shiqlarni xalq so'zma-so'z yodlab olgan.

Shu kungacha Ibroyim Yusupovning tanlangan asarlari, she'rlar va dostonlar kitobi bir necha bor o'zbek tilida nashr etilgan. “Rahmat senga, zamonim” (1979), “Qoratol” (1988), “Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqting” (2009), “So'fito'rg'ay salomi” (2015) nomli she'rlar to'plamlari shular jumlasidan. Ushbu kitoblarga kirgan she'rlar ustoz Mirtemir, Zulfiyaxonim, Shuhrat, Jumaniyoz Jabborov, Husniddin Sharipov, Borot Boyqobilov, Normurod Narzullayev, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Oydin Hojiyeva, Ma'ruf Jalil, Muhammad Ali, Halima Xudoyberdiyeva, Yangiboy Qo'chqorov va boshqa shoirlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bu tarjimalar zamonaviy o'zbek shoirlari orasida Ibroyim Yusupovning obro'-e'tibori nihoyatda baland ekanini namoyon etadi. Adabiyot olamida har biri yuksak nu-fuzga ega bo'lgan, she'riyatning yuksak cho'qqilarini zabt etgan ustoz shoirlarning yuragidan o'tib qog'ozga tushgan va o'zbek kitobxonlariga havola etilgan Ibroyim Yusupovning qoraqalpoqcha she'rlari maqomi naqadar yuksakligini his etdim. Ustoz shoirlarning har birining o'z Ibroyim Yusupovi mavjud ekanini, Ibroyim Yusupov har bir tarjimonining tilida o'zgacha



jaranglashini angladim. Bu ijodiy mehnat o'rganishga va saboq olishga arziydigan katta maktabdir.

O'z navbatida Ibroyim Yusupov ham O'zbekistonni, o'zbek shoirlarini jon-u dili bilan yaxshi ko'rardi. "Men Toshkentni sog'inaman ko'rmasam", "O'zbekiston", "Mustaqillik maydonidan o'tganda", "Alisher Navoiyga", "O'zbek sozi", "Mirzo Ulug'bek xotirasiga" nomli betakror she'rlar yozib, jannatmonand ona diyorimizni avj pardalarda bulbuldek tarannum etgan. O'zbekiston xalq shoirlari Zulfiyaxonim, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovga bag'ishlab she'rlar yozib, o'zbek she'riyatiga qoraqalpoq xalqining ehtiromini izhor aylagan. Shoir "O'zbekiston" sarlavhali she'rida yozadi:

*Burkanib xilvat yaproqqa,  
Bulbul bilan sir sirlashdim,  
Shamol bilan shivirlashdim...*

*... Qarolilar qora ko'zin  
Suzganda ul qizil anor  
Ishq o'tida kuyib yonar...*

Go'zal tashbehlarda so'zning betakror ranglari jilolanadi. Yurakda jo'shgan tuyg'ularning harakati jonli, haroratli. Xayol va tasavvur suratlari nozik, nafosatli.

Cheksiz dashtlar, bepoyon kengliklar tabiati, u yerlarda yashayotgan xalqning beg'ubor ko'ngli, mardona fe'li qanotli so'zlar, ko'p qatlamli iboralar bilan ifodalanadi.

*Oftob sarg'ayar-u kungaboqarday,  
Yoz bo'yi tepangdan ketmas yolqini.  
Ko'ksingdan itarmay berishgusi joy  
Suv bo'yi, tollarning soya-salqini.*

Odamning sillasini quritadigan issiq ob-havo, saroblarni mavjlantirib, ko'zni tindirib yuboradigan quyosh shoir she'riyatida chiroyli, mehribon, saxiy qiyofada tasvirlanadi. Yurakdan chiqqan

soʻzlar jonajon Vatanga otashin muhabbat izhori boʻlib yang-raydi. Vatanni sevgan odam, uning oftobini ham, choʻlini ham, boʻstonini, jazirama issigʻini ham, qahraton sovugʻini ham sevadi.

*Chumchuqdan kim qoʻrqa ekmaydi tariq,  
Issiq-sovugʻiga koʻnikdik butun.  
Olmasi choynakday Toʻrtkoʻl bogʻlari  
Kunsiz axir qanday pishmogʻi mumkin?*

Issiq-sovuq degan sifatlar faqat fizik hodisanigina anglatmaydi. Ular ruhiy holatni, azob-uqubat, gʻam-u shodlik kabi tushunchalarni ham bildiradi.

Mana quyoshning yana bir sifatini shoir qanday ranglar bilan beradi:

*Bugʻdoyrang bolalar yuzidan bu dam  
Amu suvi bilan tomar kun nuri.*

Bu daryoda choʻmilayotgan bolalarning oddiygina surati emas. Amudaryo boʻyida tugʻilgan, oʻtdan chiqib suvga kirib, suvdan chiqib oʻtga kirib yashayotgan xalqning timsoli chizilgan bu sheʼrda. Ona daryoda badanlaridan suv tomchilab choʻmilayotgan bugʻdoy rang bolalar. Quyosh nurida yuzlaridan ter oqib yugurayotgan bugʻdoyrang bolalar. Ona tuproqda zuvalasi Amudaryo suvi bilan qorilib, quyoshda pishgan bugʻdoyrang bolalar. Bugʻdoy nondek laziz bolalar...

Bu qoraqalpoq xalqi — Amudaryoning bolalari.

Ularning Amudaryoga mehri, muhabbati quyoshdan ham haroratli, quyoshdan ham nurli.

*Amu! Yoʻq, bu soʻzni, men sizga aytsam,  
Beparvo talaffuz qilolmas xalqim!  
Amu boʻlimganda bu yerni biz ham  
“Qoraqalpogʻiston” demasdik balkim.*

Shoir narsalarning sifatini baholashda biz koʻnikib qolgan odatiy mezonlarga boʻysunmaydi. U issiqning bagʻrida sovuqni,



## MUNDARIJA

She'riyatning katta karvoni. ( <i>Rustam Musurmon</i> ) .....	3
---	---

### SHE'RLAR

O'zbekiston. <i>Abdulla Oripov tarjimasi</i> .....	16
Ayt sen Ajiniyozning qo'shiqlaridan. <i>Abdulla Oripov tarjimasi</i> .....	19
Qoraqalpoq. <i>Abdulla Oripov tarjimasi</i> .....	20
Ossuarlar. <i>Zulfiya tarjimasi</i> .....	22
Bizning ovul qiziga. <i>Zulfiya tarjimasi</i> .....	23
Turnalar. <i>Zulfiya tarjimasi</i> .....	25
Nasihat. <i>Zulfiya tarjimasi</i> .....	26
Cho'girma. <i>Shuhrat tarjimasi</i> .....	27
Kegayli. <i>Shuhrat tarjimasi</i> .....	29
Qoratol. <i>Shuhrat tarjimasi</i> .....	30
Alisher Navoiyga. <i>Muhammad Ali tarjimasi</i> .....	31
Qoraqalpoqni ko'p maqtama ko'zimcha. <i>Omon Matjon tarjimasi</i> .....	32
Muxammas. <i>Halima Xudoyberdiyeva tarjimasi</i> .....	33
Qoraqalpog'iston kutadi seni. <i>Muhammad Ali tarjimasi</i> .....	34
O'zbek sozi. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	37
Tug'ishganlik. <i>Oydin Hojiyeva tarjimasi</i> .....	38
Toshkentlik shoir do'stlarimga. <i>Omon Matchon tarjimasi</i> .....	39
Ayozqal'a. <i>Normurod Nazrullayev tarjimasi</i> .....	41
Mahtumquliga. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	43
Men Abayni yoddan bilgan xalqman. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	44
Xorazmga. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	46
Bir kezlari Berdaq yurgan yerlarda... <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	47
Jayhun shamollari. <i>Muallif tarjimasi</i> .....	48
Bu dunyo. <i>Oydin Hojiyeva tarjimasi</i> .....	49
Odam va zamon. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	51

Vatan. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	52
Yangi asrga. <i>Mansur Ahmedov tarjimasi</i> .....	52
"Erkin bozor." <i>Oydin Hojiyeva tarjimasi</i> .....	55
Bir gul uzdim Chirchiq bo'yidan. <i>Shuhrat tarjimasi</i> .....	56
Eski yo'l darbandida. <i>Oydin Hojiyeva tarjimasi</i> .....	57
Qizing go'zal bo'lsin, shoira bo'lsin. <i>Muhammad Ali tarjimasi</i> .....	58
So'zing el ko'nglida topsin e'tibor. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	60
Asablar. <i>Jumaniyoz Jabborov tarjimasi</i> .....	62
Qadrton so'qmoqlar. <i>Muhammad Ali tarjimasi</i> .....	64
Xalq so'zlari. <i>Muhammad Ali tarjimasi</i> .....	64
Sening yosh novdangman. <i>Mansur Ahmedov tarjimasi</i> .....	66
Yana Jayhun bo'lib oqding-da kelding. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	68
Ellikka el qo'nar zamoni keldi. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	70
Tolzor sohil xotiralari. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	73
Qozoqdaryo. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	76
Bulbul to'yiga. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	78
Qirg'ovul. <i>Normurod Narzullayev tarjimasi</i> .....	80
Sodiq shoirga. <i>Husniddin Sharipov tarjimasi</i> .....	81
Suv parisi. <i>Husniddin Sharipov tarjimasi</i> .....	82
Xalqoboddan qancha odam kelmadi. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	85
Birinchi muallim. <i>Jumaniyoz Jabborov tarjimasi</i> .....	86
Maqtov oqibati. <i>Normurod Narzullayev tarjimasi</i> .....	87
Saksovol. <i>Halima Xudoyberdiyeva tarjimasi</i> .....	88
Nasibang oq bo'lsin... <i>Rauf Parfi tarjimasi</i> .....	88
Ishchi hazratlari. <i>Normurod Narzullayev tarjimasi</i> .....	89
Dog'iston tog'larida. <i>M. Haydar tarjimasi</i> .....	90
Go'zal Yupshara. <i>Husniddin Sharipov tarjimasi</i> .....	96
Xush kelding, turkmanim, safo kelibsan. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	98
Tinmay yomg'ir yog'ar Pyarnu yo'lida... <i>Aziz Abdurazzoq tarjimasi</i> .....	99
Saarema. <i>Ma'ruf Jalil tarjimasi</i> .....	101
Qirg'izlarga. <i>Jumaniyoz Jabborov tarjimasi</i> .....	102
Sevaman qirg'izning Olatovini. <i>O. Hojiyeva tarjimasi</i> .....	103